

## **Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlik rolini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari**

*Matrasulova Feruza Baxodirovna*

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tadqiqotchisi*

Ma'lumki, xo'jalik faoliyati samaradorligini baholashda ana'naviy tahlil uslublaridan keng foydalaniladi. Bunda ko'p hollarda iqtisodiy va moliyaviy tahlil nazarda tutiladi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda korxonalar moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va moliyaviy hisobot ma'lumotlarida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy jihatlariga<sup>1</sup> alohida ahamiyat qaratilgan. Biroq, tizimli yondoshuv uslubiyotining bir qancha tarkibiy elementlari mavjud bo'lib, ular korxonalar biznes-jarayonlarini kompleks tahlil etish imkoniyatini beradi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi oilaviy korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini baholashda ham tizimli yondoshuvning tahlil uslublaridan foydalanish juda qulay va samarali hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi"gi qonuniga asosan oilaviy tadbirkorlik subyekti mustaqil huquqiy maqomga ega bo'lib, milliy statistikada mustaqil hisob tizimi joriy etildi. Bu esa uning boshqa turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlardan ajralib turuvchi xususiyatlarga egaligi va o'ziga xos tahlil uslubiga tayanishini ifoda etadi. Bizningcha, uning o'ziga xosligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- qarorlarni qabul qilishda katta erkinlik (yirik biznes bilan solishtirganda);
- doimiy o'zgarib turadigan bozorda oilaviy korxonalar faoliyatini tartibga solish juda oson va arzon kechishi;
- ishlab chiqarish jarayonini yanada kengroq nazorat qilish va mahsulotni (xizmatlarni) mijozlarning ehtiyojlariga tez moslashtirish;
- korxonalar boshqaruvining oson va qulayligi uni raqobatdagi ustunligini ta'minlaydi;
- korxonalar ichidagi o'zaro aloqa tezligi (oilaviy korxonada xodimlarni boshqarishning yengilligi va samaradorligi, qarorlarni muhokama qilish va amalga oshirish qisqa fursatda ro'y beradi).
- oilaviy korxonada muayyan rasmiy va lavozimiy chegaralarning yo'qligi, xodimlarning o'zaro munosabatini osonlashtiradi.

<sup>1</sup> Тошназаров С. Н. Иктисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисобот: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: "Наврўз", 2016 й. – 295 б.

Mazkur keltirib o'tilgan oilaviy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari ular faoliyatining raqobatbardoshligini oshirishda kuchli ta'sirga ega ekanligi bizga ma'lum. Biroq, oilaviy tadbirkorlikning bunday jihatlaridan uning biznes-jarayonlarini samarali tashkil etishda qanday foydalanish mumkinligi bizni qiziqirdi. Shu bois masalaning bu jihatini ochib berishda tizimli tahlil uslubini qo'llashni maqsadga muvofiq deb bildik.

Tizimli tahlilning asosiy maqsadi muammoga olib keluvchi xatolarni aniqlash va bartaraf etishda eng yaxshi muqobil yechimlarni topishdan iboratdir<sup>2</sup>. Tizimli tahlilni oilaviy korxonalar faoliyatida qo'llashning ikki jihati mavjud:

Birinchidan, tizimli tahlil bu - tizimlar nazariyasining metodologiyasi bo'lib, tizim sifatidagi har qanday obyektning o'rganish, ularni tuzish va tahlil qilish bosqichlaridan iborat bo'lgan jarayondir. Tizimli tahlilning oddiy tahlil usulidan asosiy farqi shundaki, u nafaqat tahlil balki sintez usulini ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan oilaviy korxonalar faoliyatini har tomonlama tadqiq etishda ushbu tahlil uslubi judda qulay hisoblanadi.

Ikkinchidan, oilaviy korxonalar tavsifiga ko'ra ular faoliyatini tahlil qilish har tomonlama amalga oshirilishi mumkin, chunki oilaviy korxonalar, yirik korxonalar kabi muayyan jarayonlar uchun mas'ul bo'lgan alohida tuzilmaviy bo'linmalarga ega emas. Masalan, yirik korxonalar har bir alohida jarayon uchun uning bajarilishi va nazorati uchun maxsus bo'linmalari (bo'lim, sex, guruh va boshqalar) mavjud. Agar yirik biznesda sotish bilan bog'liq muammolar yuz bersa, unday holda savdo bo'limi faoliyati tahlil etiladi va sotish hajmini oshirish bo'yicha choralar ko'riladi. Agar bu muammo oilaviy korxonada yuz bersa, u holda barcha jarayonni to'liq o'rganish kerak bo'ladi. Chunki muammolar korxonalar ish jarayonining istalgan bosqichida ro'y bergan bo'lishi mumkin. Bunday holatda oilaviy korxonalarining yutug'i shundaki ular qisqa muddatda o'z faoliyatini kompleks tahlil etib, muammoni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yuqoridagi nazariy talqinlarga asoslansak tizimli tahlil korxonada ishlab chiqarishdan to iste'molchigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab olar ekan. Bunday murakkab uzluksiz jarayonga «biznesjarayon» deb qarash mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikni milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati uning jamiyatdagi o'rni va funksiyalari bilan bog'liq. Bunday yondashuv asosida oila institutining ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyalarini tadbirkorlikga integratsiyalashtirish masalasi yotadi. Bu

---

<sup>2</sup> Волкова, В.Н. Теория систем системный анализ: учебник для академического бакалавриата / В.Н. Волкова, А.А. Денисов.-2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт - 2014. -616 с.

boradagi nazariyalarni quyidagi yondoshuvlar bo'yicha tasniflash mumkin<sup>3</sup>:

- oilaning jamiyatda tutgan o'rni;
- oilaning iqtisodiy vazifalari;
- oilaning inson kapitalini qaror toptirishdagi funksiyalari.

Bunday yondoshuvlar mohiyatiga ko'ra, oila o'zining ijtimoiy funksiyalari orqali jamiyatga katta iqtisodiy foyda keltirishi, inson resursi jamiyat va davlat uchun zarur ekanligi, oila davlat funksiyasining sezilarli qismini o'z zimmasiga olishi va bu davlat manfaatlariga mos kelishi ta'kidlangan.

Oila va tadbirkorlik funksiyalarining integrasiyalashuvi jamiyat miqyosidagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish imkoniyatini yaratib, sinergetik samarasini beradi (1.2-jadvalga qarang).

### 1.2-jadval

#### Oila va tadbirkorlik funksiyalari integrasiyalashuvining sinergetik samarasi<sup>4</sup>

Oila funksiyalari	Tadbirkorlik funksiyalari	Sinergetik samara
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish;</li> <li>- Resurslarni yetkazib berish;</li> <li>- Inson kapitali (komil tarbiyalash);</li> <li>- Iste'mol; -ishlab chiqarish; - Jamg'arma; - Investision;</li> <li>- Tadbirkorlik faoliyati;</li> <li>- Davlat bilan ichki iqtisodiy aloqalar va b.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- iqtisodiy o'sishning omili sifatida ishtirok etadi;</li> <li>- ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda o'z imkoniyatlari doirasida ishtirok etadi;</li> <li>- Mulkdorlar va tadbirkorlar sinfini shakllantirish;</li> <li>- ijtimoiy-mehnat munosabatlarini oilaviy qadriyatlar asosida tartibga solish;</li> <li>- oila xo'jaligi resurslarini ishlab chiqarish maqsadlarida birlashtiradi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- YaIM shakllanishida ishtirok etadi;</li> <li>- iqtisodiyot tarmoqlarining o'sish sur'atlarini ta'minlaydi;</li> <li>- xotin-qizlar, uy bekalari va imkoniyatlari cheklangan aholi toifasi uchun egiluvchan ish jadvali qulay ish o'rinlarini yaratadi;</li> <li>- oilaning ijtimoiy himoyasi ta'minlaydi;</li> <li>- oilaning maishiy shart sharoitlarini yaxshilaydi;</li> <li>- aholining iste'mol talablarini qondiradi;</li> <li>- aholini tadbirkorlik</li> </ul>

<sup>3</sup> Никольская Г. Семья в условиях постиндустриального общества (на примере США) //Мировая экономика и международные отношения. – 2006. - №.8. – С. 71-81.

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- daromadlarni oshirish maqsadida oila a'zolarining tadbirkorlik qobiliyatlaridan foydalanadi;</li> <li>- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda oila a'zolarining ijodkorlik va yangi g'oyalarni qo'llaydi va b.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>faolligini oshiradi;</li> <li>- kambag'allik muammosini hal etadi;</li> <li>- oilaning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyini oshiradi va turli xil nizolarni hal etadi va b.</li> </ul>
--	---	---

Oilaning ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyalari oilada tadbirkorlikni qaror topishida ustqurma vazifasini o'tashi kerak. Chunki, biznes uchun raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va tarbiyalash aynan shu fazada ta'minlanadi. Boshqacha aytganda tadbirkorlik oila funksiyalari tizimining eng muhim, tarkibiy va ajralmas qismidir. Shu jihatdan, oilaviy tadbirkorlikga oila farovonligini ta'minlovchi eng asosiy funktsiya sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak oilaviy tadbirkorlikni tadqiq qilish ancha murakkab va ko'p qirrali jarayon ekan. Bu borada bir qancha uslubiy yondoshuvlari o'rganildi va uning murakkabligi, tadbirkorlik faoliyati bilan birga oilaviy munosabatlar va qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash bilan asoslandi. Shu bois oilaviy tadbirkorlikning bunday jihatlariga ular faoliyatining muvafaqiyatini ta'minlovchi omillari sifatida yondoshish zarur deb hisoblaymiz.